

SUDGA QADAR BOSQICHDA JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI TA'MINLASHDA PROKURORNING ISHTIROKI

Nurullayev Doston Zafar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada quydagilarga e'tibor qaratgan holda, jinoyat protsessi ishtirokchisi tushunchasi uning huquq va majburiyatları, xalqaro huquq normalarida sudga qadar bo'lgan bosqichda protsess ishtirokchilariga berilgan huquqlarning milliy qonunchiligidan bilan qiyosiy tahlili, prokuratura xodimlarining dastlabki tergovdag'i o'rni va vakolatlari shuningdek, ushbu tizimning rivojlangan xorij davlatlari bilan o'zaro o'xshash va farqli jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: dastlabki tergov, surishtiruv, tergovga qadar tekshiruv, dalil, prokuratura, tergovchi, ichki ishlar organlari, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh, farmoyish, ijtimoiy xavflilik darajasi, hududiylik.

ABSTRACT

In this article, focusing on the following, the concept of a participant in the criminal proceedings, his rights and obligations, a comparative analysis of the rights granted to the participants of the proceedings at the pre-trial stage in international legal norms with our national legislation, the role and powers of the prosecutor's office in the preliminary investigation, as well as the similarities and differences of this system with developed foreign countries are discussed.

АННОТАЦИЯ

В данной статье, акцентируя внимание на следующем, понятие участника уголовного судопроизводства, его права и обязанности, проводится сравнительный анализ прав, предоставляемых участникам судопроизводства на досудебной стадии в международно-правовых нормах с обсуждаются наше национальное законодательство, роль и полномочия прокуратуры на предварительном следствии, а также сходства и различия этой системы с развитыми зарубежными странами.

So'nggi uch yillik yangi O'zbekiston tarixidagi sud - huquq islohotlari negizida, mamlakatimiz fuqarolarining huquq va erkinliklari ta'minlanishining ishonchli

kafolatlanishi borasida, har bir huquq sohasida shaffof mexanizmlar keng joriy etilayotganligiga guvoh bo‘lib kelmoqdamiz. Shu bilan birga, sud-tergov amaliyotida, xususan, dalillarni to‘plash, mustahkamlash, tekshirish va baholash chog‘ida qonuniylik hamda xolislikni ta’minalash bilan bog‘liq ayrim kamchiliklar, huquqiy bo‘shliqlar mavjudligini hayotimizning o‘zi yaqqol namoyon etmoqda. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda biz jinoyat protsessining ishtirokchilarining huquqlarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan dastlabki tergov bosqichida buzulishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun shaffof mexanizm shaklantirishimiz lozim deb hisoblayman. Shunday ekan, hozirda biz o‘zimiz yoritmoqchi bo‘lgan mavzuning subyektlari doirasi kimlar ekanligini va ishtirokchilarga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararlar tasnifi to‘g‘risida dastlab keltirib o‘tishimiz asosli bo‘ladi deb hisoblayman.

Jabrlanuvchi - jinoyat oqibatida yoxud aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida ma’naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko‘rgan shaxs demakdir. Ma’naviy zarar - fuqaroning or nomusi va insoniy qadr-qimmatini toptashda, uni boshqa fuqarolar oldida kamsitishda, jamoatchilik oldida obro‘yini tushirishda va badnom qilishda ifodalanadi. Jismoniy zarar - fuqaroning badaniga shikast va sog‘lig‘iga putur yetkazish, jismoniy azob va og‘riqlarga duchor qilish, mulkiy zarar - shaxsiy mulkni g‘ayriqonuniy ravishda olish, unga shikast yetkazish yoki mulkka egalik qilish huquqini buzish demakdir. Fuqaroni jabrlanuvchi deb topish haqida surishtiruvchi, tergovchi va prokuror - qaror, sud esa ajrim chiqaradi¹. Agar jabrlanuvchi voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa, ishda uning qonuniy vakili ishtirok etadi. Jabrlanuvchining o‘limi bilan tugagan jinoyat ishlarida jabrlanuvchi huquqlari qonunga binoan yaqin qarindoshlariga o‘tadi. Bundan tashqari, jabrlanuvchining huquqlari va uning ijtimoiy himoyasini ta’minalash maqsadida 2019-yil 14-yanvarda, O‘RQ 515-son bilan “Jabrlanuvchilarini, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan. Shuningdek, ushbu qonun bo‘yicha himoya qilinuvchi shaxslar sifatida:

- 1) jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili;
- 2) guvoh;
- 3) jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi;
- 4) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning himoyachilari va qonuniy vakillari;
- 5) mahkum, oqlangan shaxs, o‘ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan shaxs;
- 6) fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari;

¹ <https://library-tsul.uz/jinoyat-protsessual-huquqi-maxsus-qism-2018>

7) ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolis.

Shuningdek, himoya qilish choralari jinoyat ishi qo‘zg‘atilguniga qadar arizachiga, jinoyat shohidiga yoki jinoyatning oldini olishga yoxud uni fosh etishga ko‘maklashuvchi shaxslarga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkinligi belgilangan. Ushbu qonundagi eng muhim jamiyatimiz uchun belgilab qo‘yilgan narsa bu himoya qilishni ta’minlovchi davlat organlari aniq ko‘rsatilganligidir. Bular:

- himoya qilishni ta’minlash to‘g‘risida qaror qabul qiluvchi organlar;
- xavfsizlik choralarini ta’minlovchi organlar;
- ijtimoiy himoya qilish choralarini ta’minlovchi organlar kiritilgan.

• Himoya qilishni ta’minlash to‘g‘risidagi qaror jinoyat ishini yuritayotgan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan, surishtiruv, dastlabki tergov organlari va sud tomonidan qabul qilinadi.¹

Ichki ishlar organlarining yoki O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati organlarining yurituvida bo‘lgan jinoyat ishlari bo‘yicha himoya qilinuvchi shaxslarga nisbatan xavfsizlik choralari mazkur organlar tomonidan ta’minlanadi. Sudning yoki prokuratura organining yurituvida bo‘lgan jinoyat ishlari bo‘yicha himoya qilinuvchi shaxslarga nisbatan xavfsizlik choralarini himoya qilinuvchi shaxslar joylashgan yerdagi ichki ishlar organlari tomonidan sudning yoki prokurorning qaroriga binoan ta’minlanadi. Harbiy xizmatchilar orasidan bo‘lgan himoya qilinuvchi shaxslarga nisbatan xavfsizlik choralarini tegishli harbiy qismlar qo‘mondonligi va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy tuzilmalarining yuqori turuvchi qo‘mondonligi tomonidan ta’minlanadi.

Tergov hibxonalarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxslarga nisbatan xavfsizlik choralarini tegishlichcha ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati organlari tomonidan ta’minlanadi. Jazoni o‘tash joylarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxslarga nisbatan xavfsizlik choralarini O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi muassasalari tomonidan ta’minlanadi. Shuningdek, himoya qilinuvchi shaxslarni ijtimoiy himoya qilish choralarini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari va boshqa organlar zimmasiga yuklatiladi deb ko‘rsatilgan.² Ushbu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-yanvarda qabul qilingan “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi 515-sonli qonuni.

² Inog’omjonova Z.F., To’laganova G.Z. Jinoyat-protsessual huquqi fanidan o’quv-uslubiy qo’llanma -T: TDYI nashriyoti, 2012. -441 b.

O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonun loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritildi. Bu qonun loyihasi davlatimiz rahbarining 2017-yil 30-noyabrdagi «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonining ijrosi doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra, tergov sifatini xalqaro standartlar asosida tubdan oshirish bo‘yicha amaliy choralar belgilangan. Jumladan:

1. Yarashuv institutini qo‘llash mexanizmi takomillashtirilmoqda. Unga ko‘ra, shaxsga nisbatan tergov davrida e’lon qilingan ayblov, jinoyat ishi sudning qaysi instansiyasida ko‘rilayotganligidan qat’i nazar yarashuv instituti doirasiga tushadigan yengilroq moddaga qayta malakalangan hollarda yarashuv institutini qo‘llash imkoniyati;

2. Ushlangan shaxsning huquqlari poymol bo‘lishining oldini olish maqsadida:

- ushlab turish muddatini jinoyat sodir yetishda gumon qilinayotgan shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgan vaqtidan boshlab emas, balki shaxs haqiqatda ushlangan vaqtidan boshlab hisoblash;

- shaxs amalda ushlangan paytdan boshlab, tegishli mansabdar shaxs u bilan bog‘liq surishtiruv va tergov harakatlarini o‘tkazishdan oldin himoyachi bilan holi uchrashuvni ta’minlashi shartligi;

3. O‘ta og‘ir jinoyat sodir yetganlikda ayblanayotgan shaxslarga oid jinoyat ishi bo‘yicha, shuningdek qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyyot chorasini qo‘llash holatlarida himoyachining ishtirok etishi shartligi;

4. Sudga qadar ish yuritish davrida shaxs huquqlari buzilishining oldini olish maqsadida: agar ushlangan ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini protsess ishtirokchisi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo‘lmasa, ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va so‘roq qilish;

– shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi sifatida jalb qilish uchun real asoslar mavjud bo‘lgan hollarda uni guvoh tariqasida so‘roq qilish, shuningdek, protsessual huquqlarini tushuntirmasdan turib, undan biron-bir yozma yoki og‘zaki ko‘rsatmalar olishni taqiqlash;¹

Ma’lumki, ayblanuvchining qonun va xalqaro hujjalarda aks etgan eng asosiy huquqlaridan biri – bu ko‘rsatmalar berishdan bosh tortish va ko‘rsatmalaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo‘lish huquqidir.

¹ 2017-yil 30-noyabrdagi «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmon

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir masala borki, u mazkur jarayonda faoliyat ko‘rsatuvchi kadrlar faoliyatiga taalluqli. So‘nggi yillarda davlat xizmatchilarining kasbiy sifatlari va xizmatlarini obyektiv baholash orqali davlat xizmatini samarali tashkil etishga e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, Prezidentimizning 03.10.2019-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni ham mazkur sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Farmonning 2-bandи ikkinchi xatboshisida, kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlarini odilona va obyektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish hamda ularning xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishini nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyilini qo‘llash davlat fuqarolik xizmatini yanada takomillashtirish va isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi¹. Qayd etish joizki, bugungi kunda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi va tergovchilar faoliyatini baholash tartibi protsessual qonunchilikda o‘z aksini topmagan.

Bundan tashqari, ular tomonidan amalga oshirilgan ishlар hisobi ham markazlashtirilgan tartibda hisobga olinmaydi. Jinoyat ishlари hisobi esa, faqat ishning mazmuni uchun yuritiladi. Baholash mezonlarining belgilanmaganligi, ularni mas’uliyatli lavozimlarga tayinlash yoki yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar asnosida lavozimni pasaytirish yoxud undan ozod etishda subyektiv yondashuvlarga sabab bo‘ladi. Bu borada, xorijiy davlatlar tajribasiga e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasida tergovchilarni 8 ta toifaga ajratish tizimi mavjud bo‘lib, toifaga ajratishda, xodimning ish staji, tergov qilingan, prokuror yoki suddan qaytgan jinoyat ishlари soni bilan bog‘liq mezonlar belgilangan. Ijobiy ko‘rsatkichga erishgan xodimlarga lavozimini oshirish, qo‘shimcha ustama belgilash, toifa darajasini berish kabi imtiyozlar, aksincha, salbiy ko‘rsatkichlarga ega xodimlarni esa boshqa lavozimga o‘tkazish, toifasini bekor qilish yoki davlat xizmatidan bo‘shatish kabi choralar qo‘llaniladi.² Shu bois, JPKni “Tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi va tergovchi faoliyatini baholash” deb nomlanuvchi quyidagi mazmundagi 393-modda bilan to‘ldirish lozim: “Tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi va tergovchi faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan mezonlar asosida baholanadi. Baholash natijalari ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan mansabdor shaxslarga toifa darajalarini berish uchun asos bo‘ladi. Jinoyat ishlари sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi hamda tergovga qadar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.10.2019 yil qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni.

² “Compensation to Crime Victims – Denmark” (PDF). Archived from the original.

tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi va tergovchining malaka toifasiga muvofiq ravishda taqsimlanadi”. O‘ylaymizki, jinoyat-protsessual qonunchiligidagi bu kabi normalarning aks etishi ish samaradorligini oshirishga, faoliyatda subyektiv yondashuv yuzaga kelishini oldini olishga xizmat qiladi. Asosiy maqsad esa, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish asosida qonunchilik hamda jinoyat ishlarini tergov qilish va ko‘rib chiqish uslubiyotini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi 1-qismida “Shaxsni javobgarlikka tortish muddati o‘tgan bo‘lsa” hamda 2-qismida “E’lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo‘lsa” ayblilik to‘g‘risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun asoslar keltirilgan. Mazkur holatda jinoyat ishini tugatish uchun jabrlanuvchining roziligi yoki unga yetkazilgan zarar qoplanganligi inobatga olinmaydi. Shu bois, Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi 1-qismida “Shaxsni javobgarlikka tortish muddati o‘tgan bo‘lsa” hamda 2-qismida “E’lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo‘lsa” ayblilik to‘g‘risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish chog‘ida jabrlanuvchining roziligini yoki unga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni qoplanganligini inobatga olish tartibini joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Shuningdek, qonunchiligmizda jabrlanuvchi maqomi, huquq va majburiyatlari jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan so‘ng vujudga kelishi belgilangan bo‘lib, jabrlanuvchining jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar maqomi belgilanmagan. Ammo, Yevropa qo‘mitasining Jinoyatchilik muommolari bo‘yicha hisobotida jabrlanuvchini jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar maqomi “Victim” and/or ‘Vulnerable Victim”⁸³ ya’ni “jabrlanuvchi yoki nochor jabrlanuvchi” qilib belgilangan. Yuqoridagi xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda qonunchiligmizga jinoyat ishi qo‘zg‘atilganga qadar maqomini belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Shunigdek, yuqoridagi fikrlarimni umumlashtirgan holda quyidagi takliflarni keltirib o‘tmoxchiman:

- Jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishning ishonchli mexanizmini yaratish uchun dastlabki tergovni nazorat qilish bo‘yicha prokurorning vakolatlarini kengaytirish to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilishi lozim;
- O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1983-yil 24-noyabrda og‘ir jinoyatlar sodir etilishi natijasi qurbanlariga kompensatsiya to‘lash to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasini imzolash masalasini ko‘rib chiqishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. <https://library-tsul.uz//jinoyat-protsessual-huquqi-maxsus-qism-2018>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-yanvarda qabul qilingan "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi 515-sonli qonuni.
3. Inog'omjonova Z.F., To'laganova G.Z. Jinoyat-protsessual huquqi fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma -T: TDYI nashriyoti, 2012. -441 b.
4. 2017-yil 30-noyabrdagi «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi prezident Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.10.2019 yil qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoni.
6. "Compensation to Crime Victims – Denmark" (PDF). Archived from the original.